

**ABDULHAMID CHO'LPON HIKOYALARI TAHLILI**

*Farg'ona davlat universiteti  
Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi  
Marjona Solijonova Sadirdin qizi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulhamid Cho'lponning hayoti va ijodiy faoliyati, uning o'zbek adabiyoti rivojidagi beqiyos o'rni yoritiladi. Adibning she'riy va nasriy merosi, xususan hikoyachilikdagi o'ziga xos uslubi tahlil qilinadi. Maqolada Cho'lponning lirik nasr namunalaridan biri hisoblangan "Qor qo'ynida lola" hikoyasi g'oyaviy-badiiy jihatdan chuqur tahlil etilib, undagi obrazlar tizimi, ayol taqdiri, ijtimoiy muhit va davr ruhining aks etishi ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining boshqa hikoyalari bilan qiyosiy yondashuv asosida uning ijodiy uslubi va realizm uyg'unligi ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijasida Cho'lpon asarlarida insoniylik, erkinlik va ayol qismatiga oid dolzarb masalalar yetakchi o'rin egallashi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Abdulhamid Cho'lpon, o'zbek adabiyoti, hikoya janri, lirik nasr, "Qor qo'ynida lola", ayol taqdiri, badiiy tahlil, obraz, realizm, ijtimoiy muhit, adabiy meros, g'oyaviylik.

Yangi o'zbek adabiyotining asoschilaridan biri, ulug' shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi, jamoat arbobi va adib Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yilda Andijonda tavallud topgan. U betakror ijodkor sifatida rang-barang ijod qilgan. Abdulhamid Cho'lpon shu qisqagina umri davomida sermahsul hayot kechirgan, ijodiy yutuqlarga, yuksak iste'dodi tufayli yuzlab she'rlar, qator nasriy asarlar, dramalar, maqola va tarjimalar tufayli o'zbek adabiyotimiz xazinasini boyigan. Umuman olib aytganda Cho'lpon "so'zi" o'tgan asr 20-yillaridanoq Sharq-u G'arbda baralla yangrab, tong yulduzi yanglig' porlab, turkiyzabon xalqlar orasida o'z mavqeyini topgan edi. Uning shuhrati shu qadar boyigan ediki, hayotlik chog'ida ham o'ttizga ham to'lmagan navqiron paytlarida Toshkentning Bodak mahallasidagi maktab va Do'rmon qishlog'i uning nomi bilan atalgan, shuningdek Turkiya, Olmoniya va Fransiyada nashr etiladigan jurnallarda shoir asarlari qayta-qayta e'lon qilinib turar edi. Adib boy ijodining qo'lyozma manbalari ayrim sabablarga ko'ra bizgacha yetib kelmadi. 1989-yilga kelib adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul Cho'lponning turli davrlarda yozilgan eng sara she'rlaridan kichik to'plam tuzgan va "Bahorni sog'indim" nomi bilan chop ettirgan. Hozirga qadar o'tgan o'ttiz yildan ziyod vaqt mobaynida Cho'lpon she'rlarining nashr qilinishi borasida juda ko'p ishlar olib borilgan.

Abdulhamid Cho'lpon adabiy merosining umumiy ko'lami haqida ma'lumotlar bo'lsa-da, ularning barchasi hali bir joyga to'planishi u yoqda tursin, ayrimlari aniqlanish bosqichida turibdi. Shunday bo'lsa-da, ijodkor asarlari uch tomligining nashr qilinishi va bulardan ikkitasining o'quvchilar qo'liga tekkanligi muhim hodisa bo'lib, muallif ijodi haqida fikr yuritishga bemalol imkoniyat beradi. Jumladan, 1-jildidan shoirning «O'zbek yosh shoirlari» to'plamiga kirgan 14 ta she'ri va «Uyg'onish», «Buloqlar», «Tong sirlari», «Soz» va turli davr matbuotida e'lon qilingan she'rlar, jami —252 she'r o'rin olgan. Shunga qaramasdan, bu adib she'rlarining tugal nashri emas, albatta. Goh-goh matbuotda yangi topilgan she'rlari e'lon qilinib turibdi.

Cho'lpon ijodiga xos lirik nazokat va nafosat shoir narsiy asarlarining ham o'ziga xosligini belgilab kelgan. Cho'lpon qaysi mavzuga murojat etmasin badiiy voqelikni poetik til va obrazlar orqali mujassamlantirishga erishgan. Shu ma'noda uning 20-yillarda yozgan “Oydin kechalarda”, “Qor qo'ynida lola”, “Novvoy qiz” singari hikoyalari o'zbek adabiyotidagi lirik nasrning dastlabki mumtoz namunalari bo'lgan. Cho'lpon bu hikoyalarida o'zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini turli badiiy obrazlarda tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi jamiyat xotin-qizlariga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi, degan g'oyani o'z asarlarida ilgari surgan. Umuman, o'zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri Cho'lpon she'riy ijodining ham, kichik epik asarlarining ham, “Kecha va kunduz” romanining ham asosiy g'oyaviy yo'nalishini belgilab bergan.

“Qor qo'ynida lola” hikoyasi g'oyaviy-badiiy tahlil yuzasidan muallifning “Oydin kechalarda”, “Novvoy qiz”, “Gavharoy” kabi hikoyalaridagi ayollarning ayanch taqdiri tasviri qalamga olingan. Bu hikoya qahramoni Sharofatxon Cho'lponning yuksak e'tiroflarga sabab bo'lgan, o'qiguvchilar qalbida alohida o'rin tutgan “Kecha va kunduz” romanining qahramoni Zebi bilan taqdiridosh tasvirlangani tufayli birini o'qiganda, boshqasi yodga tushadi.

To'rt qismdan tashkil topgan bu hikoya yagona roviy tomonidan hikoya qilinadi. Ya'ni muallif qahramonlar ruhiyatini ochishda dialog va monologlarga keng o'rin bermaydi, aksincha, yozuvchi bayoni yetakchilik qiladi. Bu unsur hikoya qisqaligiga mazmun jihatdan putur yetkazmagan holda ta'minlagan. Shu bilan birga har bir qismda boshqa-boshqa personajlarning ichki kechinmalari o'z o'rnida namoyon bo'ladi. Hikoya motivi Cho'lponning qalami chizmalaridan hosil bo'lgan “Kecha va kunduz” romanidagi kabi ma'no ibtidosi bilan boshlanadi. Hikoyaning ilk satrlaridanoq kunlar isigani, hovuzdagi muzlar erib, unga tushgan to'pning holati (To'p suvga sho'ng'ib ketib hovuzning o'rtasidan chiqdi va qizlarning havasli, o'ynoqi ko'zlarini oldida gerdayib suza boshladi) bilan “Kecha va kunduz” romanidagi qizlar yig'ilishi, bahorlashib ketishi, o'zaro bog'liq (hikoya yozilgan vaqtda, jamiyat ayol-qizlar besabab ostona xatlamagan). Asarda syujetlar ketma-ketligi o'quvchini o'sha zamon

insoniga aylantirib boradi, qahramonlar soʻzini bevosita tinglashga, mushohada va muhokama qilishga undaydi. Hikoya boshi oʻyin manzarasi bilan boshlansa-da, toʻpning suvga dafʼatan tushib ketishi bilan hikoya leytmotivi maxzunlikni inson ruhiyatigaasar soʻngiga qadar singdirib boradi.

Syujet chiziqlariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, birinchi qism yosh qizlarning begʻubor oʻyini bilan boshlanib, hikoyaning soʻngida roʻy beradigan tragik voqea shum xabaridan kelgan darak bilan yakunlanadi.

Ikkinchi chiziq, Sharofatxonning otasi Samandar aka va uning ayoli Qumribushlarning ichki kechinmalarini va Sharofatxon taqdiri uchun mudhish evrilishni oʻz ichiga qamrab oladi.

Uchinchi chiziqda esa toʻy harakatlari, boʻlayotgan voqealarga atrofdagilar munosabat izohlangan. Toʻrtinchi chiziq-xulosa. Ushbu toʻrt chiziq syujetni personajlar hikoyasi bilan emas, ijodkorning soʻzlari orqali yaxlit qoliplanganini koʻrish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oʻsha davrda qorda qolgan lolalar kam emas edi. Choʻlpon bu hikoyani yozishdan maqsadi, xalq orasida boʻlayotgan ishlarni, adolatsizliklarni jamiyatga yetkazish edi. Hikoya hozirda oʻzining muhlislarini, kitobxonlarini topib boʻlgan, albatta. Choʻlpon yashagan davr ayol va qizlari holatini, ichki kechinmalari, xaq-huquqlarini hikoya timsolida koʻrdik. Bu, albatta, yozuvchining qay darajada mahoratli ekanligini isbotidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.Choʻlpon. -Toshkent: Gʻ.Gʻ.nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1993-yil.
2. D. Quronov va boshqalar. “Oʻzbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn anjumani materiallari.
3. A.Choʻlpon “Yurt qaygʻusi haqida bebaho asarlar”. - Toshkent, 2022-yil.